1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK:619:636.3:616.9

QO‘YLARDA BRADZOT (CL.SEPTICUM) KASALLIGI EPIZOOTOLOGIYASI

I.X.Salimov, Sh.Hakimov, B.P. Bazarbaeva

Veterinariya imiy-tadqiqot instituti.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311015

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
102–106

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Salimov I.X., Hakimov Sh., Bazarbaeva B.P. Qo‘ylarda bradzot (cl.septicum) kasalligi epizootologiyasi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 102–106. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311015

ANNOTATSIYA Bradzot kasalligi klostridiozlar guruhiga kiradi, o‘ta xavfli infeksion kasallik bo‘lib mamlakatimiz hududlarida uchrab turibdi. Kasallikni etiologik omillarini, yuqish yo‘llarini, epizootologiyasini, diagnostik-asini, davolash va profilaktik chora tadbirlarini mukammal o‘rganish hozirgi kungi veterinariya infektologiyasida dolzarb masalasi hisoblanadi.

KALIT SO‘ZLAR infeksiya, infektologiya, anaerob, aerob, spora, kapsula, klostridiozlar, immunoferment reaksiyasi, giperimmun qon zardobi, rekonvalessent qon zardobi, neytralizatsiya reaksiyasi, antigen, maxsus antitelolar, anatoksinlar, agglyutinatsiya reaksiyasi, gemoagglyutinatsiya reaksiyasi, gemoliz, urobilin, sterkobilin, leykotsitoz, leykopeniya, fagotsitoz, glikogen, giperglikemiya, gipoglikemiya, diapedez, gemorrogiya, diapedez.

SUMMARY Bradsot illness of sheep nich is in the group of clostridiosis, one of the most dangerous infetuous illnesess appeared in our country. Etymological factors of this disease, infected nays, epizootology diagnostics, cure and prophlaxis actions, nowadays is considered to be culminated in veterinary.

Mavzuning dolzarbligi. Aholini yuqori sifatli go‘sht va sut mahsulotlari bilan, sanoatni esa etarli xom ashyo bilan ta’minlash maqsadida, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib chorvachilikni rivojlantirish uchun veterinariya xizmati xodimlari amaliyotda qo‘ylarini infeksion kasalliklariga qarshi biologik preparatlar va ko‘pgina yangi davolovchi kimyoviy dori- darmonlarni qo‘llash evaziga ayrim infeksion kasalliklar bo‘yicha turg‘un sog‘lom epizootik holatni vujudga keltirmoqda. Qo‘ylarning infeksion kasalliklaridan bradzot va infeksion enterotoksemiya kasalliklari alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolarning shaxsiy xo‘jaliklarida, fermerlar va Respublikamizning qo‘ychilik xo‘jaliklaridagi qo‘ylarda uchraydigan o‘ta xavfli infeksion kasalliklardan hisoblangan bradzot va infeksion enterotoksemiya kasalliklarini oldini olish va qarshi kurash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu kasalliklar dunyoning barcha qo‘ychilik rivojlangan mamlakatlarida tarqalgan va hozirgi vaqtda ham qo‘ylar orasida uchrab turmoqda.

Klostridioz kasalliklariga: qorason, bradzot, yuqumli enterotoksemiya, qoʻzilarni anaerob dizenteriyasi, qoramollarni yuqumli enterotoks-yemiyasi, choʻchqalar enterotoksemiyasi, qoʻylarni nekrotik gepatiti, botulizm, qotma, yomon sifatli shish kasalliklari kiradi. Bu kasallik qoʻzgʻatuvchilari patogen anaerob bakteriyalardir. Bu kasalliklarning mamlakatimizda uchrab turishining obektiv va subektiv sabablari bor. Obektiv sabablari bu qoʻzgʻatuvchilarning ekologik muhitda keng tarqalganligidir. Tumanlar, viloyatlar, Respublika veterinariya boshqarmalari epizootik xaritalarini koʻrib chiqib aniqlik kiritish lozim. Infeksiya oʻchoqlarini aniq belgilash shart. Chunki infeksiya oʻchoqlari bor boʻlgan hududlarda epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasi tuzilishi va oʻz vaqtida bajarilishi bu kasalliklarni batamom yoʻqotishning yetakchi zvenosi hisoblanadi. Xavfli zonalardagi chora tadbirlar ham muddatida malakali–sifatli bajarilishi lozim.

Fermaga yangi keltirilgan hayvonlarni albatta 30- kun davomida karantinda saqlanib veterinariya koʻrigidan oʻtkazilib sogʻlom boʻlsagina podaga qoʻshiladi. Fermer xoʻjaliklariga infeksiyaning kirib kelish yoʻllari atroflicha oʻrganilib, ularni oʻz vaqtida oldini olish kerak. Doimiy infeksiya oʻchoqlarida, unga qoʻshni hududlarda albatta reja boʻyicha vaksinatsiya oʻtkazilishi zarur.

ILMIY TADQIQOT ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Qoraqolpogʻiston Respublikasining ayrim tumanlarida chorvachilik fermer xoʻjaliklarida tumanlar, viloyat epizootik xaritalari malumotlari, epizootolog vrachning hisobotlari va uchastka veterinariya vrachlari, fermer xoʻjaliklari boshliqlari malumotlari, aholidan olingan malumotlar boʻyicha epizootik oʻchoqlarni bradzot kasalligini aniqlash. Kasallik qoʻzgʻatuvchilarining morfofizi-ologik, biokimyoviy, kultural, patogenlik, virulentlik xususiyatlarini tuman, veterinariya laboratoriyalarida, VITI–immunologiya va biotexnologiya laboratoriyalarida aniqlash. Cl septicum – polimorf, grammmusbat harakatlanuvchi tayoqcha 4-5 mkm, subterminal joylashgan oval sporalari boʻladi. Kasallanib oʻlgan qoʻy jigaridan tayyorlangan tamgʻa mazoklarda, koʻpgina mikroblar ipsimon shaklda boʻladi. Anaerob sharoitda qattiq ozuqa muhitlarida yarim yaltiroq chetlari baxmalsimon patli noteks boʻlib, qonli agarda gemoliz zonasi yaqqol koʻrinadi. Kitt-Tarotssi muhitida bulon kuchli loyqalanadi, gaz ajratib chiqadi. Cl. Oedematiens toʻgʻri yoki uchlari biroz egilgan harakatli peritrix tayoqcha 4-8x1-1.5 mmk qatiy anaerob, kislorodli muhitda subterminal oval sporalar hosil qiladi. Mikroblar koʻpincha 3-5 mikroblar zanjircha xosil qilib joylashadi. Qattiq ozuqa muhitlarida uncha tiniq boʻlmagan shudringsimon koloniyalar xosil qiladi. Kitt – Tarotssi muhitida koloniyalar 48-soatda hosil boʻladi. Saxaralitik xususiyati oʻrtacha boʻlib kam miqdorda gaz ajraladi. Bradzot qoʻzgʻatuvchi bakteriyalar 4 tipga boʻlinadi. Cl oedematiens: A tipi Cl. novyi.V – tipi – Cl. gigas, C tip Cl bubalorum, D tip–Cl. hamolyticum. Har bir tip maxsus antigen toksin ishlab chiqaradi.

Kasallik qoʻzgʻatuvchi bakteriyalarning sporali shakllari fizikoviy, ximiya-viy tasirlarga oʻta chidamli.Tuproqda mikroblar yillab yashay oladi. Qaynatilganda 30-60 min.da mikroblar oʻladi. Dezinfeksiya uchun 3% aktiv xlorli ohak, 10%li 70° S li issiq sulfat-korbol eritmasi, 5 % li issiq natriy yoki kaliy gidroksidi, 10% li formaldegid eritmalari ishlatiladi.

Tabiiy sharoitda qoʻylar yoshi, jinsidan qatiy nazar bradzot bilan kasallanadi. Koʻpincha 2-yoshgacha boʻlgan qoʻylar koʻproq kasallanadi. Kasallik epizootiya koʻrinishida uchraydi. Bradzot kasalligi yilning barcha fasllarida uchraydi, koʻproq bahor va kuzda uchraydi, yoz

qurg‘oqchil kelganda ham uchraydi. Kasallikning kelib chiqishida ozuqa ratsionining birdan o‘zgarishi ham sabab bo‘ladi Birdaniga ko‘kat ozuqalarni ko‘p istemol qilishi, ratsionda oqsillar, miniral moddalarning yetishmasligi, hazm organlarining gelmentlar bilan zararlanishi, organizmning sovuqda qolishi, xaddan tashqari issiqda qolishi xam sabab bo‘ladi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai kasal hayvonlar va batsilla tashuvchilar hisoblanadi. Bradzotdan o‘lgan qo‘ylar jasadining tashqi muhitda qolib ketishi, kasal hayvonlar boqilgan yaylovlar, sug‘orish joylari infeksiya manbai hisoblanadi. Ifloslangan yaylovlar, ko‘l, daryolarning bo‘lishi ham xavfli hisoblanadi. Kasallik ko‘kat o‘sganda, qirov bilan qoplanganda, yomg‘irli paytlarda, shudringli paytlarda kasallik ko‘proq chiqadi. Qo‘ylarning to‘planib qolgan iflos ko‘lmak suvlardan ichishi, muzlab qolgan, chirigan yem-xashaklarni istemol qilishi kasallikni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bradzot bilan semiz qo‘ylar kasallanadi. Qo‘yxonalarda boqilganda yosh qo‘zilar, yaylovda boqilganda katta yoshli qo‘ylar kasallanadi. Kasallik asosan alimentar yo‘l bilan ifloslangan yem-xashak va suv bilan yuqadi. Kasallik otardagi 30-35% qo‘ylar kasallanishi va o‘lim 90-100% bo‘ladi.

Kasallik qo‘ylarda o‘ta o‘tkir va o‘tkir formalarda kechadi. O‘ta o‘tkir kechganda (yashin tezligida) ertalab qo‘yxonalarda qo‘ylar o‘lib yotganini ko‘ramiz xolos. Aslida kechqurun barcha qo‘ylar sog‘lom bo‘lib ko‘ringan. Bazan qo‘ylarni yaylovga xaydayotganda yiqiladi va o‘ladi, konyunktivit, timpaniya, og‘izdan ko‘piq ajralib turadi. Tana harorati normada yoki biroz past bo‘ladi.

Kasallik o‘tkir kechganda tana temperaturasi 40.5-41.0°C ga ko‘tariladi, hayvon ahvoli og‘irlashadi, yem-xashakni yemay qo‘yadi, nafas va puls tezlashadi, burun og‘izdan ko‘pik oqadi, shilimshiq ajraladi. Bazan qon aralash ich ketish, siydik ajralishi tezlashishi, timpaniya, kolik, giperimiyalashgan konyunkttivit, tishlarni g‘ijirlatishi, bosh, tomoqda shishlar paydo bo‘ladi. Kasal hayvon qiynalib harakatlanadi

Bazan asabiy o‘zgarishlar: notinchlik, sezuvchanlik kuchayib ketishi, aylanma yoki sakrab yurishlar paydo bo‘lashi, hayvon yerga ag‘nab turli xil notabiiy harakatlar qilishi, kolaps, qaltirash holatlari paydo bo‘ladi. Bu hatti harakatlar birdaniga yo‘qolishi mumkin. Bunday xolatlar davom etishda hayvon 8-14 soatda, bazi hollarda 3-5 kunda o‘ladi.

Bradzot kasalligidan o‘lgan hayvon jasadi 2-5 soatda shishib ketadi, tezda chirib-irib ketadi, sasigan hidli bo‘ladi. Tabiiy teshiklaridan qon aralash, ko‘piksimon suyuqlik oqib turadi. Bosh qismi teri osti klechatkasida, bo‘yin teri osti klechatkasida ko‘piksimon shilimshiq to‘planadi, gemorragik infltrat shimilgan bo‘ladi, gazli pufakchalar ham bo‘ladi. Juni tez yulinib ketadi, shilliq pardalar ko‘kargan bo‘ladi. Periferik qon tomirlarida qon ivimaydi. Kekirdak, bronxlar shilliq pardalarida infltratsiya hamda nuqtali qon quyilishlari bo‘ladi. Meda oldi bo‘limlari ozuqa bilan to‘lgan, shirdan esa bo‘sh bo‘ladi. Diafragma va ko‘krak qafasi plevralarida nuqtasimon qon oqishlar bo‘ladi. Ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ida qizg‘ish ekssudat to‘planadi. O‘pka qon bilan to‘lgan, shishgan bo‘ladi, yurak mushaklari bo‘shashib–idrab qolgan, epikard va endokardda gemorragiya kuzatiladi. Taloq biroz kattalashgan, jigar qon bilan to‘lgan, ustki qismida nekrotik tugunchalari bo‘ladi. Buyraklar shishgan, giperi-miyalashgan, bo‘shashgan bo‘ladi. Shirdonning shilliq pardalarida yallig‘lanish va giperimiya kuzatiladi, gemorragik dog‘lar (pyatna) ko‘p bo‘ladi. 12- barmoqli ichak shilliq pardalari qizargan, gemorragik yallig‘langan bo‘ladi, yo‘g‘on bo‘lim ichaklarda o‘zgarishlari deyarlik bo‘lmaydi.

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311015

KASALLIK DIAGNOZ QO‘YISH KOMPLEKS TEKSHIRUVLAR NATIJALARIGA ASOS-LANIB QO‘YILADI

-epizootologik tekshiruv xulosasi;

-klinik belgilari tahlili;

-patologoanatomik o‘zgarishlar bo‘yicha xulosa;

-laboratoriya tekshiruvi xulosasi;

-Ishonchli dalil bakteriologik, serologik tekshiruv natijalari hisoblanadi;

Bradzot kasalligini quyidagi kasalliklardan farqlash shart:

-Kuydirgi kasalligi, infeksion enterotoksemiya, pasterellez, qorason, piroplazmoz, akonit (kakra o‘simligi) bilan zaharlanishdan farqlash lozim.

Kakradan zaharlanishda toksikologik tekshiruv tahliliga qaraladi. Yuqoridagi barcha kasalliklardan faqat bakteriologik tekshiruv natijalariga asoslanib farqlanadi.

Bradzot kasalligi o‘ta o‘tkir kechganligi sababli davolashga ulgurmaydi. Ammo kasallik cho‘zilsa u holda antibiotiklarning gramm musbat mikrofloraga effekti yaxshilari ishlatiladi.

Immunitet: -Bradzot kasalligini profilaktika qilishda polivalen-tligidrookis alyuminiyli konsenrlangan vaksina (Bradzot, infeksion enterotoksemiya, yomon sifatli shish, qo‘zilar dizenteriyasiga qarshi vaksina) ishlatiladi. Vaksina ikki marta muskul orasiga yuboriladi, interval 12-14 kun, profilaktik maqsadda interval 20-30 kun. Immunitet 12-14 kunda paydo bo‘ladi 6-oy davom etadi. Qo‘ylarni kompleks emlash metodi kuydirgiga, chechakka, bradzotga va infeksion enterotoksemiyaga qarshi emlash qo‘llaniladi.

Bradzot kasalligini oldini olshda kompleks tadbirlar o‘tkaziladi:

-mikro, makro klimat, veterinariya sanitariya holatining stabil nazoratini o‘rnatish;

-yaylovlar, sug‘orish joylari veterinariya sanitariya nazoratiga;

-Zahiradagi yem – xashak, yem ozuqalari sistemali nazoratiga;

-Statsionar va ko‘chib yuruvchi o‘choqlarda, xavfli zonalarda o‘tkaziladigan tadbirlar nazorati;

-Profilaktik maqsaddagi vaksinatsiyalar erta bahorda hayvonlarni yaylovga xaydashdan 30-45 kun oldin o‘tkaziladi;

-Kuzda hayvonlarni qishlovga olib kelganda ikkinchi vaksinatsiya o‘tkaziladi.

-Kasallik chiqqan fermer xo‘jaligiga-cheklov o‘rnatilib, hayvonlarni, yem – xashakni olib kirish va olib chiqish taqiqlanadi;

-Klinik sog‘lom hayvonlar va gumonli hayvonlar zudlik bilan alohida ajratilib vaksinatsiya o‘tkaziladi;

-Kasal va gumonli hayvonlar saqlangan binolarni 3% aktiv xlorli ohak, 5% o‘yuvchi natriy yoki kaliy, 10 % formaldegid yoki bir xlorli yod eritmalari bilan dezinfeksiya o‘tkaziladi;

-Kasal hayvonlarni so‘yish, terisini ajratish, junini qirqish, sog‘ish, sutini istemolga ishlatish mutlaqo taqiqlanadi.

-Kasal hayvonlar jasadi, to‘shamalar, qolgan yem–xashaklari kuydirib yo‘q qilinadi;

-Kasal hayvonlarni yorib ko‘rish faqatgina maxsus joylarda o‘tkaziladi;

-Cheklash oxirgi kasal hayvon yo‘q qilingandan 20 kun o‘tgach, yakunlovchi dezinfeksiya o‘tkazilib tuman bosh veterinariya vrachi, hokimiyat vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzilib bekor qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salimov X.S., A.A. Qambarov and I.X. Salimov "Epizootologiya va infeksion kasalliklar." Darslik Toshkent-2021 yil.
2. Хакимов Шорасул and Илхом Салимов. "Эпизоотология инфекционно некротического гепатита овец." Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности 1.1 (2022): 195-198.
3. Салимов, Илхом Хаитович. "ҚЎЙЛАРНИ ИНФЕКЦИОН НЕКРОТИК ГЕПАТИТ КАСАЛЛИГИ ЭПИЗООТОЛОГИЯСИ Ҳакимов Шорасул." ВЕТЕРИНАРИЯ ФАНИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УНИНГ ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ 1-қисм (2022): 195.
4. Salimov, Ilkhom, et al. "Specific prevention of emphysematous carbuncle of cattle and sheep." BIO Web of Conferences. Vol. 95. EDP Sciences, 2024.
5. Салимов И.Х., Шапулатова З.Ж., Салимова Д.И., Хакимов Ш., Курбанов Ж.Х. /Қўйларнинг брадзот касаллиги ва унга қарши кураш чоралари./ Ветеринария ва чорвачилик соҳасидаги ютуқлар ва мавжуд муаммолар ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий конференцияси.// Самарқанд ВМИ. 2021 й. 6-7 май. 77-80 бет.
6. Салимова Д.И., Ҳамдамов Х.А., Салимов И.Х. Қорасонга қарши маҳаллий вакцинани самарадорлигини бошқа номдош вакциналар билан таққослаш. Veterinariya meditsinasi. Ж. № 7 2023 й. 9-11 бет.
7. Ҳакимов Ш., Салимова Д.И., Салимов И.Х. Инфекцион некротик гепатит. Республика илмий-амалий конференцияси. ВИТИ. 2023 й. 21 сентябр
8. Смирнов А.М. Инфекционные болезни овец. – Москва, 2016.
9. Конопатов Ю.В. Клостридиозы сельскохозяйственных животных. – Санкт-Петербург, 2018.
10. Алиев А.А. Эпизоотология брадзота овец – Баку, 2017.
11. Hakimov Sh., Salimov I.X. Cases of infectious necrotic hepatitis of sheep in Samarkand region. International Journal for Innovative Engineering and Manangement Research. IJIEMR February 2022. Impact Factor: 7.011, ISSN 2456-5083/ www.ijiemr.org Volume 11, Issue 02, pages 333-337.
12. Yuldashev R., Hakimov Sh., Salimov I.X., Salimova D.I. Distribution of black disease in some districts of samarkand region International Journal for Innovative Engineering and Manangement Research. IJIEMR Transactions, online available on 2nd Mar 2022. Link:http://www.ijiemr.org/downloads.php?vol=Volume-11&issue=ISSUE-02 **DOI: 10.48047/IJIEMR/V11/I02/30**
13. Ҳакимов Ш., Салимова Д.И., Салимов И.Х. Қўйларнинг инфекцион некротик гепатит касаллиги ва унга қарши кураш чора тадбирлари. VETERINARIYA MEDITSINASI. Ж. № 3. 2022 й. 8-10 бет.
14. Klichov O.I., Khakimov Sh., Salimov I.Kh. Infectious Enterotoxemia Disease of Sheep Epizootology. Web of Scholars Multidimensional Research Journal (MRJ).Vol:01 Issue:07/2022 ISNNL2751-7543) p. 70-73.
15. Қличов О.И., Ҳакимов Ш., Салимов И.Х. Қўйларнинг инфекцион энтеротоксемия касаллиги диагностикаси. ВИТИнинг 95 йиллигига бағишланган ҳалқаро илмий конференция. 199-203 бет.